

TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB, ZAMONAVIY TURLARI, TARJIMA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA TADQIQOTLAR

Ilmiy rahbar: **Ernazarova Nargiza Xidirovna**

Ingliz amaliy tarjima kafedrası katta o'qituvchisi

nargizaernazarova1111@gmail.com

Sharipova Shahzoda Ilhom qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti: ingliz tili

2-kurs talabasi

Shahzodashahzoda96@gmail.com

Annotasiya. Bugungi globallashuv jarayoni til bilish, madaniyatlararo muloqot qilish va axborot almashinuvini yanada jadallashtirdi. Bunday sharoitda tarjima sohasi nafaqat madaniy ko'priklar vazifasini, balki xalqaro iqtisodiy, siyosiy va ilmiy aloqalarning asosiy vositasini ham bajarmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda XXI asr tarjimonidan yuqori tezlik, aniqlik, terminologik izchillik va katta hajmdagi matnlar bilan ishlash kabi talablar qo'yilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va tilni qayta ishlash algoritmlarining rivoji tarjima jarayonida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu maqolada tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar hamda bugungi kunda tarjimonlarga yordamchi hisoblangan raqamli texnologiyalardan foydalanish to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: CAT vositalari, mashina tarjimasi, tarjima xotirasi, terminologiya, tarjimadan keying tahrir.

Annotation. The current process of globalization has accelerated language learning, intercultural communication, and information exchange. In such conditions, the field of translation serves not only as a cultural bridge but also as a key instrument for international economic, political, and scientific relations. Today, particularly, the

translator of the 21st century is expected to work with high speed, accuracy, terminological consistency, and large volumes of text. At the same time, the development of digital technologies, artificial intelligence, and language-processing algorithms has introduced a new qualitative stage in the translation process. This article discusses the difficulties encountered in translation and the use of digital technologies that currently serve as assistants to translators.

Keywords: CAT tools, machine translation, translation memory, terminology, post-editing.

Аннотация. Современный процесс глобализации ускорил изучение языков, межкультурную коммуникацию и обмен информацией. В таких условиях переводческая сфера выполняет не только функцию культурного моста, но и является важнейшим инструментом международных экономических, политических и научных связей. Особенно сегодня от переводчика XXI века требуется высокая скорость, точность, терминологическая последовательность и умение работать с большими объёмами текста. Наряду с этим развитие цифровых технологий, искусственного интеллекта и алгоритмов обработки языка открыло новый качественный этап в переводческом процессе. В данной статье рассматриваются трудности переводческого процесса, а также использование цифровых технологий, которые сегодня служат помощниками переводчикам.

Ключевые слова: CAT-инструменты, машинный перевод, память переводов, терминология, постредактирование.

Tarjima va tarjimonlik uzoq yillardan buyon dunyo xalqlarining madaniyatida shakllanib kelayotgan eng qadimgi sohalardan biridir. Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqda. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Yer yuzining turli qit'a va mintaqalarida bir necha ming yildan buyon umrguzaronlik qilib kelayotgan xalqlar o'z ijodkorlik havaslari,

qiziqishlari, imkoniyatlari, manfaatlarini tarjima vositalari orqali namoyon qilishgan. Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat bir-birlaridan xabardor bo'lib, o'zaro muloqotda bo'lishgan. Tarjima inson taraqqiyotida, uning madaniy hayotida juda katta va muhim rol o'ynaydi.

Global kommunikatsiya jarayonining kuchayishi tarjima faoliyatining ahamiyatini sezilarli oshirdi. Turli madaniyatlar, til tizimlari va ilmiy sohalar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayonida tarjimonlar ko'plab murakkab muammolarga duch kelmoqdalar. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, ayniqsa CAT vositalari va mashina tarjimasi ushbu jarayonlarni yengillashtirishda muhim omilga aylanib bormoqda. Quyida tarjima jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar haqida so'z yuritadi.

Tarjima jarayonidagi asosiy qiyinchiliklar:

1. *Lingvistik qiyinchiliklar.*

Leksik tafovutlar: so'zlar ko'p ma'noliligi, sinonimiya, omonimiya tarjima jarayonini murakkablashtiradi.

Grammatik farqlar: gap tuzilishidagi o'ziga xosliklar, so'z tartibi va tizimi muhim rol o'ynaydi.

Terminologik muvofiqlik: ilmiy-texnik matnlarda aniq terminlar talab etiladi, lekin ko'p hollarda mos ekvivalentlarni topish qiyin.

2. *Madaniy qiyinchiliklar.*

Madaniyatga xos xususiyatlar: an'analar, tarixiy atamalar, geografik nomlar, metaforalar.

Konnotativ ma'nolar: tilning yashirin, emotsional yoki ijtimoiy konnotatsiyalari tarjimon uchun qo'shimcha mas'uliyat yaratadi.

3. *Kognitiv qiyinchiliklar.*

Tarjimonning ma'lumotni tez qayta ishlashi, mantiqiy izchillikni saqlashi va kontekstni tushunishi zarur.

4. *Texnik qiyinchiliklar.*

Soha maxsus matnlarida (tibbiyot, muhandislik, yuridik matnlar) murakkab terminologiya mavjud. Formatlash, jadval, grafika yoki kod elementlarini tarjima qilish esa texnik bilimni talab qiladi. Bugungi kunda, tarjimondan esa bu qiyinchiliklarni raqamli texnologiyalar asosida qanday bartaraf etish usullarini bilish talab etilmoqda. So‘nggi yillarda tarjima amaliyotida CAT vositalari va mashina tarjimasi keng qo‘llanila boshladi. Bu texnologiyalar tarjima sifatini oshirish, tezlikni ko‘paytirish va xatoliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

CAT vositalarining asosiy afzalliklaridan biri, tarjima xotirasi hisoblanadi. Bunda avval tarjima qilingan segmentlar saqlanadi va takror uchraganda avtomatik taklif qilinadi. Shuningdek, avtomatik sifat nazorati ham bor. Bu raqamlar, format, terminlar, imlo va grammatik xatolarni aniqlaydi. CAT toolsning turlariga SDL Trados, MemoQ, Smartcat, OmegaT kabi tarjima dasturlari kiradi. Mashina tarjimasining esa asosiy afzalliklaridan biri tezlik hisoblanadi, ya’ni katta matnlarni soniyalarda tarjima qila oladi. Bu esa tarjimonga qiyinchiliklarni bartaraf etishda ancha qo‘l keladi. Shu sababdan, uning vaqti tejalib, tarjimalarni taqqoslash imkoniyati bo‘ladi. Yana muhim taraflaridan biri sifatida ko‘p tillilikni misol qilsak bo‘ladi. Bu esa kam uchraydigan tillar o‘rtasida ham tarjima qilish imkonini beradi. Mashina tarjimasining keng tarqalgan turlariga Google Translate, DeepL, Yandex Translate va boshqa neyron tarmoqlarga asoslangan xizmatlar mavjud.

CAT vositalari va mashina tarjimasi orqali qiyinchiliklarni bartaraf etishning ilmiy-amaliy yechimlari:

1. Terminologik bir xillikni ta’minlash

Termin bazalari soha terminlarini standartlashtiradi va tarjimada izchillik yaratadi. Bu ilmiy matnlar uchun juda muhim.

2. Tezkorlik va samaradorlikni oshirish

Tarjima xotirasi ko‘p marotaba qo‘llaniladigan iboralarni avtomatik takrorlaydi. Natijada tarjimonning vaqt sarfi 30–70% gacha kamayishi mumkin.

3. Tarjimadan keying tahrir orqali sifatni yaxshilash

Mashina tarjimasining xatolari tarjimon tomonidan tuzatiladi, bu esa inson va texnologiyaning optimal hamkorligini yaratadi.

4. Kognitiv yuklamani kamaytirish

Matn segmentlarga bo'lingani uchun tarjimonning e'tiborida kamroq axborot birligi bo'ladi. Bu xatolarni kamaytiradi va mantiqiy izchillikni ta'minlaydi.

5. Madaniy va lingvistik moslikni ta'minlash

Mashina tarjimasi asosida tez tarjima qilinadi, CAT vositalari orqali esa madaniy-ekvivalent tahriri bajariladi. Natijada aniqlik va moslik birlashtiriladi.

Tarjimada texnologiyalardan foydalanish ham ijobiy, ham salbiy ta'sirlarga egadir. Ijobiy tomonlari shundaki, raqamli texnologiyalar tarjima jarayonini yengillashtirish, sifatni oshirish va vaqtni tejashda muhim rol o'ynamoqda. Salbiy tomoniga keladigan bo'lsak, faqat texnologiyalarga tayanib qolish tarjima sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Ayniqsa hissiyotga boy, ya'ni badiiy asarlar tarjimasida inson omili texnologiyalardan ko'ra ustun hisoblanadi. Shunday ekan, tarjimon tarjima jarayonida har bitta kichik detaligacha e'tiborli bo'lib, texnologiyalardan to'g'ri, kerakli vaqtdagina foydalanishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, CAT vositalari tarjimonlar uchun terminologik izchillik, avtomatik nazorat va samaradorlikni ta'minlaydi. Mashina tarjimasi esa dastlabki tarjima variantini taqdim etib, post-editing orqali yuqori sifatga erishish imkonini beradi. Shunday qilib, CAT vositalari va mashina tarjimasi tarjima jarayonidagi lingvistik, madaniy, texnik va kognitiv qiyinchiliklarni samarali bartaraf etishda zamonaviy, ilmiy asoslangan yechim sifatida qaralmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Electronic Tools for Translators. Routledge, 2014.
2. Yates. S. "Post-Editing of Machine Translation Output: Processes and Practices." Translation & Interpreting Studies, 2018.
3. Sobirova Sh. S. "Tarjima turlari tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar." Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari, 2023.
<https://econferenceseries.com/index.php/srnss/article/download/2137/2089/2133>
4. Sattarova Marxabo. *Zamonaviy tarjima jarayonida sun'iy intellektning o'rni va ta'siri*. Tarjimashunoslik va tilshunoslikning dolzarb muammolari: Zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar mavzusidagi xalqaro ilmiy_amaliy anjuman, Toshkent, 2025.
<https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/1691>
5. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1978.